



# 2-bosqich 1-semestr 1-mavzu: O‘zbek tili va uning taraqqiyoti



TILAME

Ona tili

Abdukadirova M.M.



# Reja:

1. O‘zbek adabiy tili tarixining davrlari.
- 2.O‘zbek adabiy tili va xalq tili o‘rtasidagi bog‘liqlik.
- 3.Milliy (umumxalq) til, adabiy til va shevalar.
- 4.Qadimgi turkiy til.
5. Eski turkiy til



Dars shiori: Tilingni so‘zlashga soz,  
muhayyo qil,  
Tilingni o‘q qil-u, aqlni yoy qil.  
*(Abulqosim Firdavsiy)*



TIIAME

O'zbek adabiy tili tarixi quyidagi davrlarni o'z ichiga oladi.

1.Qadimgi turkiy tili  
(Miloddan oldingi davrdan X asrgacha)

2.Eski turkiy til (X-XII)

3.Eski o'zbek adabiy tili  
(XII-XIII asrdan XX asr boshlari adabiyoti)

4.Hozirgi o'zbek adabiy tili(XX asrdan hozirgi davrgacha)



TIIAME

- Hozirgi barcha turkiy tillar uchun qadimgi turkiy til umumiyligi sanaladi. Hozirgi turkiy tillarning shakllanishi quyidagi davrlarga bo‘linadi:
  - 1.Oltoy davri. 2.Eng qadimgi turk davri.
  - 3. Qadimgi turk davri . 4. O‘rta turk davri.
- Turkiy tillar qadimda mo‘g‘il va tungus- manjur tillari bilan
- birgalikda bitta oilani tashkil etgan va bu oltoy tili deb atalgan.
- Qadimgi turkiy til xususiyatlarini haqida ma’lumot beruvchi
- manbalar urxun-enasoy, uyg‘ur, sug‘d yodgorliklaridir.




**Runiy (Urxun-Enasoy) yozuvi oromiy yozuvi ta'sirida paydo bo'lgan bo'lib, unda 26 harf mavjud. Avvalo bu yozuv Yenisey qirg'oqlariga, so'ngra sharqiy turklarga o'tib tarqalgan. Bu yozuvning borligi fan olamiga XIII asrdagina ma'lum bo'ladi. Ularning namunalari Enasoy daryosi bo'yidan topilgan. XIX asr oxirida esa rus sayyohi va yozuvchisi N.M.Yadrinsev Urxun daryosi bo'yidan shu xildagi yozuvlarni topadi. Tuzilishi jihatidan german runik yozuvlariga o'xshaganligi uchun **runiy yozuv**, Urxun va Enasoy daryolaridan topilgani uchun **Urxun-Enasoy yozuvi** deb atagan.**



Eski turkiy adabiy tilning yozma yodgorliklari:

Yusuf Xos Hojibning «Qutadg‘u biling» dostoni

- Ahmad Yugnakiyning «Hibat-ul haqoyiq» dostoni
- Ahmad Yassaviyning «Devoni hikmat»
- Turkiy tafsir (Qarshi tafsiri )
- «O‘g‘uzxoqon» (O‘g‘uznama)
- Burxoniddin Nasiruddin Rabg‘uziy. «Qisasi Rabg‘uziy» dostoni





TILAME


- Eski o‘zbek adabiy tili XII asrdan XX asrgacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Alisher Navoiy, Bobur, Turdi Farog‘iy, Mashrab, Furqat, Muqimiy kabi ijodkorlarning eski o‘zbek tilini yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqishda xizmatlari katta.



# O‘zbek adabiy tili va xalq tili o‘rtasidagi bog‘liqlik. Milliy (umumxalq)til, adabiy til va shevalar



TILAME





# Auksion savollari.



TILAME

- 1-savol : O‘zbek adabiy tili qanday tarixga ega?
- 2-savol: «Kultegin», «Bilga xoqon», «To‘nyuquq bahodir» kabi yodgorliklarning tili to‘g‘risida fikr yuriting. Ulardagi holatni bugungi tilimizga solishtiring va farqli jihatlarini toping.
- 3-savol: «Uma kelsa, qut kelur», «Kuzaku uzun bo‘lsa, alik kuymas» maqollaridagi tagiga chizilgan so‘zlarni izohlang, manbaini aniqlang



# **Yangi mavzu bo'yicha o'z-o'zini baholash testi**



TIIAME

- 1. Umumxalq tilining qayta ishlangan, sayqallangan va ma'lum bir me'yorga solingan shakli qanday ataladi?  
A) sheva    B) lahja    C) xalq tili    D) adabiy til
- 2. O'zbek adabiy tili tarixi nechta davrni o'z ichiga oladi?  
A) 3 davrni    B) 4 davrni    C) 5 davrni    D) A va B
- 3. Qadimgi turkiy tilning yozma yodgorligi joylashgan qatorni topping.  
A) «Xuastuanift» B) «Muhabbatnama» C) «Qisasi Rabg'uziy» D) «Ufq»
- 4. «Arab tili bilan ikki uloqchi ot singari teng poyga qilib, o'zib borayotgan turk tilini» ko'klarga ko'targan alloma kim?  
A) Mahmud az-Zamaxshariy B) M.Koshg'ariy C) Navoiy D) Xorazmiy



# O‘z-o‘zini baholash nazoratiga mo‘ljallangan test

8-10 ball- “a’lo”, 6 ball- “yaxshi”, 4 ball-“qoniqarli



TIIAME

O‘zlashtirish darajasi	Testlar soni	Ajratigan vaqt, daqiqa	Har bir testni baholanishi (ball)	Jami ball
I -daraja	2	1	2	4
II -daraja	3	3	2	6
III-daraja				
	5	4		10



## Eski adabiy tilda yozilgan baytlarni hozirgi adabiy tilga aylantiring? Navoiydan bir bayt aytib, uni hozirgi tilimizga solishtiring va o‘rtadagi farqlarni tushuntiring



TIIAME

So‘z guhariga erur anga sharaf,  
Kim bo‘la olmas anga gavhar sadaf,  
Til bu chamanning varaqasi lolasi,  
So‘z dururidin bo‘libon jolasi.

So‘zdin o‘likning tanida ruhi pok,  
Ruh dog‘i tan aro so‘zdin halok.

Tengriki, insonni qilib ganji roz,  
So‘z bila hayvondin anga imtiyoz.  
Donayi dur so‘zni afsona bil,  
So‘zni jahon bag‘riga durdona bil.

(“Hayrat ul abror”dan)



TILAME

## A.Navoiyning(“Hayrat-ul abror”) dostonidan

Eski adabiy tilda	Hozirgi adabiy tilda
Guhar	gavhar
Anga	unga
bo‘libon	bo‘lib
so‘zdin	so‘zdan



Uyga vazifa ”O‘tkan kunlar ” romanidan keltirilgan  
ushbu so‘zlarning imlosiga e’tibor berib,  
quyidagi kabi lug‘at tuzing.



TIIAME

<b>Jonso‘z - jon o‘rtovchi</b>	<b>Tamanno - istak,xohish</b>
<b>G`italanmoq - jonlanmoq</b>	<b>Yamin - ont, qasam, ishonch</b>
<b>Huvalbori - ul tangri</b>	<b>Mustahiq - munosib,loyiq,duchor</b>
<b>Aladdavom - doimo</b>	<b>Azl - bo‘shatish,mansabdan tushirish</b>
<b>Rijo - umid,tilak</b>	<b>Talaf - nobud bo‘lish</b>
<b>Addoi - duo qiluvchi</b>	<b>Chingilin - kelishgan bejirim</b>
<b>Irpaygan - irjaygan kulgisini yashirolmagan</b>	<b>Mujib - sabab</b>
<b>Itob - qahr g`azab</b>	<b>Kalvak - landovur,go‘l</b>
<b>Shuvvuy-emaklab</b>	<b>O‘ttasi-ertadan keyin, indin</b>
<b>Rafoqat-hamrohlik,eshlik</b>	